

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING MUSIQA DARSIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI ORTTIRISH

Muradova Xurshida Shavkat qizi

*Nukus davlat pedagogikaa instituti,
Musika ta'lim kafedrası magistranti,
Nukus, Qaraqalpaqstan*

ANNOTASIYA. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning musiqa darslariga qiziqishini oshirishning pedagogik, uslubiy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda musiqa ta'limining navqiron avlodning ma'naviy, estetik va ijodiy kamolotida tutgan o'rni yoritilgan, zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda innovatsion yondashuvlar berilgan. Xususan, interfaol usullar, raqamli musiqa texnologiyalaridan foydalanish, zamonaviy va milliy musiqa janrlarini uyg'unlashtirish, fanlararo integratsiya va sinfdan tashqari mashg'ulotlar samaradorligi ko'rsatilmoqda.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, o'rta maktab, integrativ metodlar, musiqa savodxonligi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются педагогические, методологические и практические аспекты повышения интереса учащихся к урокам музыки в средних школах. Исследование подчеркивает роль музыкального образования в духовном, эстетическом и творческом развитии молодого поколения и предлагает инновационные подходы, основанные на требованиях современного образования. В частности, показаны интерактивные методы, использование цифровых музыкальных технологий, сочетание современных и национальных музыкальных жанров, междисциплинарная интеграция и эффективность внеклассных мероприятий.

Ключевые слова: музыкальное образование, средняя школа, интегративные методы, музыкальная грамотность.

ABSTRACT. This article analyzes the pedagogical, methodological and practical aspects of increasing students' interest in music lessons in secondary schools. The study highlights the role of music education in the spiritual, aesthetic and creative development of the younger generation, and provides innovative approaches based on the requirements of modern education. In particular, interactive methods, the use of digital music technologies, the combination of modern and national music genres, interdisciplinary integration and the effectiveness of extracurricular activities are shown.

Keywords: music education, secondary school, integrative methods, musical literacy.

KIRISH

Bugungi kunda umumta’lim maktablarida o’quvchilarni musiqa faniga bo’lgan qiziqishlarini orttirish, o’qitish jarayonlarini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolarning biriga aylandi. Musiqa ta’limi o’quvchilarning ma’naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o’rin tutadi. O’zbekiston Respublikasida musiqa va san’at ta’limini rivojlantirishga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, Prezident qarorlari asosida umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanining mazmuni va o’qitish metodikasini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, musiqa darslarida interaktiv metodlar, zamonaviy va milliy musiqa namunalaridan foydalanish, fanlararo integratsiya hamda amaliy mashg’ulotlarni samarali tashkil etish orqali o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini oshirish masalasi ilmiy jihatdan o’rganishni taqozo etadi.

TADQIQOT MAQSADI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi umumta’lim maktablarida musiqa darslarini samarali tashkil etish orqali o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirishning pedagogik va metodik asoslarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, musiqa ta’limida interaktiv, ko’rgazmali va amaliy metodlardan foydalanish, milliy cholg’u asboblarni o’rgatish hamda darsdan tashqari musiqa faoliyatlarini yo’lga qo’yishning o’quvchilarning musiqiy savodxonligi va ijodiy faolligiga ta’sirini asoslab berish tadqiqotning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi pedagogik tahlil, kuzatish va umumlashtirish usullariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida umumta’lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etishda qo’llanilayotgan so’zlab berish, ko’rgazmali va amaliy metodlarining o’zaro uyg’unligi tahlil qilindi. Shuningdek, musiqa darslarida zamonaviy ta’lim texnologiyalari, raqamli musiqa vositalari, miliy va zamonaviy musiqa janrlaridan foydalanish hamda fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg’ulotlarning o’quvchilarning qiziqishlariga ta’siri o’rganildi. Tadqiqotda Prezident va Vazirlar Mahkamasining musiqa ta’limiga oid qarorlari nazariy asos sifatida qabul qilinib, ularning amaliyotidagi ijrosi umumlashtiriladi.

ASOSIY NATIJALAR VA MUHOKAMA

Umum ta’lim maktablarida o’quvchilarning musiqa ta’limiga bo’lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida yosh avlodni yanada barkamol avlod bo’lib tarbiyalashda musiqa ta’limiga bo’lgan ehtiyojlarini qondirishi maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev PQ-391 sonli qarori bilan: “Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o’qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o’qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” qaror [1] qabul qildi. Qarordan maqsad yosh avlodni ma’nan, aqlan, jismonan tarbiyalash vatanni sevish asrash kabi g’oyalarni singdirishdir.

Maktablarda o’quvchilarning musiqaga bo’lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida o’qituvchilar darslarni interaktiv usullarda o’tishmoqda. Musiqa texnologiyalari: oddiy musiqa yaratish ilovalari yoki raqamli asboblardan foydalanish orqali darslarga innovatsiya kiritish. Zamonaviy musiqa: darslarga o’quvchilar yaxshi ko’radigan zamonaviy va milliy musiqa janrlarini kiritish, ularni ijro qilish va tahlil qilish, musiqa asboblari o’rgatish, har xil musiqa tadbirlarini o’tkazish bularning hammasi bolalarni musiqa darsiga bo’lgan qiziqishlarini orttiradi.

Musiqa fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasi ham muhim pedagogik ahamiyatga ega[6]. Jumladan, musiqa-tarix, musiqa-adabiyot, musiqa- matematika va h.k. Darslardan tashqari vaqtlarda o’quvchilarga qiziqishlariga qarab vokal, xor, milliy cholg’ular to’garaklarini tashkil etish o’quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim o’rin tutadi. Mazkur to’garaklar orqali o’quvchilarda jamoada ishlash ko’nikmalari, sahna madaniyati va ijrochilik malakalari shakillanadi. Shuningdek, milliy cholg’u asboblari o’rganish o’quvchilarda milliy musiqa merosiga bo’lgan qiziqish va hurmatni oshiradi.[5]

O’zbekistonda musiqa va san’atni rivojlantirishga qaratilgan Prezident va Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari mavjud, qaror bo’yicha; 1. Darslarda zamonaviy va an’anaviy musiqa asboblariidan foydalanishni yo’lga qo’yish. 2. O’quvchilarning ijodkorligini rag’batlantirish bo’yicha metodik qo’llanmalar. 3. Musiqani boshqa fanlar bilan integratsiya qilish bo’yicha qarorlari. 4. Milliy musiqa va sa’natni rivojlantirish. Bu say harakatlarning barchasi musiqa fani yanada keng quloqch yoyishiga va yurtimizda voyaga yetayotgan jazzi bolajonlarimizning barkamol va manan yetuk inson bo’lib tarbiyalanishiga katta turtki bo’ladi.

Belgilangan tartibdagi qarorlarga muvofiq har bir maktab bitiruvchilari beshta asbobning kamida bittasi chalib berishlari lozim, [2] bu degani milliy cholg’ularimizni chalish va milliy

cholg'ularimizga bo'lgan befarqlikni kamaytiradi. Natijada har bir o'quvchi asboblardan foydalanib biladi va musiqa fanidan savodxonligi yetarlicha degan xulosaga keladilar. O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim sifatini yanada oshirish lozim. Darslarda har bir yosh iste'dod sohiblarini rag'batlantirish darsni samarali o'tishiga o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishlarini ortirishga yordam beradi.

Darslarning yanada qiziqarli o'tish uchun har bir o'qituvchi o'zining takrorlanmas metodlaridan foydalanmog'i kerak. Xususan, bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun qisqa qo'shiqlar yaratish, masalan; o'quvchilar sodda qo'shiqlarni hirgoya qilib ulardan kichkinagina kuy bastalashni so'rash yani ovoz yordamida yozilgan she'rlariga musiqa hirgoya qilish. Bu metod bolalarni ijodiy qobiliyatini oshirishga keng yordam beradi. Musiqa asboblarni chalishni o'rganish ham bolalarda musiqani nazariy jihatdan o'rganibgina qolmagan balki, amaliy jihatdan ham o'rganishiga ta'sir ko'rsatadi. Maktab tadbirlarida o'quvchilarning faol ishtiroki hamda ularning musiqa faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Sahna chiqishlari jaryonida o'quvchilar mas'uliyatni his etadilar, nutq madaniyati va ijodiy mustaqilligi rivojlanadi. Natijada, musiqa ta'lim nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali amalga oshiriladi.

Dars jarayonida musiqiy ta'lim va tarbiya bershning o'zaro bog'langan metodlari mavjud bular shular jumlasidandir. 1) so'zlab berish metodi nazariy, 2) ko'rgazmali qurollar yordamida ko'rgazmali metod, 3) amaliy metod; bu metodlarga qisqacha to'xtalib o'tsak. So'zlab berish metodida o'qituvchi o'rganilayotgan kuy qo'shiqning bastakori haqqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi bu darsni mustahkamlash uchun. So'zlab berish metodi bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgan ko'rgazma metodi, o'qituvchi mavzuga muvofiq ko'rgazmali qurollar yordamida dars o'tadi masalan bir kuy hirgoya qiladi va shu kuyni yozgan bastakorning rasmini ko'rsatadi, natijada o'quvchilar, ham kuyni ham kuy bastalagan bastakorni eslab qoladilar. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir kuy eshittirsa, ular bastakorni ham aniq tanlab berolishadi. Sababi o'qituvchi darsni ikki metodni o'zaro bog'lab uyg'unlashtirib dars o'tdi. Amaliy metodda o'qituvchi o'rganilayotgan qo'shiqni hirgoya qilib berishi yoki qo'shiqni asboblarda chalib berishi ham o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishlarini tobora orttiradi. [4]Bu uchchala metod ham bir biri bilan uzviy bog'liq.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablarida musiqa darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning fanga bo‘lga qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Musiqa ta’limida interaktiv, ko‘rgazmali va amaliy metodlardan kompleks foydalanish o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish, ularning ijodiy faolligini kuchaytirish va estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi[7]. Tadqiqot davomida musiqa darslarida zamonaviy va milliy musiqa texnologiyalaridan uyg‘unlashtirish, raqamli musiqa texnologiyalaridan foydalanish hamda fanlararo integratsiyani ta’minlash ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida aniqlandi. Shuningdek, dasrdan tashqari faoliyat sifatida xor, vokal va milliy cholg‘u asboblari to‘garaklarini tashkil etish o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan barqaror qiziqishini shakllantirishga ijodiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari umumta’lim maktablarida musiqa ta’limini takomillashtirish, o‘qitish jarayonida samarali metodlarni tanlash va amaliyotga joriy etishda metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Umum ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-391 sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-112-son Qarori. 2022-yil 2-fevral.
3. J.Turatov. “Musiqa ta’limda metod va usullardan dars jarayonlarida foydalansh”.
4. S.I.Musabekov. “Musiqa tarbiyasi”. Toshkent 1973 y.
5. Rajabiy Y. "O‘zbek xalq musiqasi". Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
6. Qodirov R. "Musiqa pedagogikasi asoslari". Toshkent: O‘qituvchi.
7. Hasanov A. "Musiqa ta’limi metodikasi". Toshkent: Fan va texnologiya